

**INGLIZ TILIDA TALABALARINING KASBIY-
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHNING LINGVISTIK VA LINGVODIDAKTIK
MUAMMOLARI (SPORT YO'NALISHI MISOLIDA)**

Shahobidinova Dilnavoz Bahodir qizi

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Email:shahobiddinovadilnavoz325@gmail.com

Tel:998934911909

Annotatsiya: Ushbu maqola jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda uchraydigan lingvistik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini yoritadi.

Kalit so'zlar: kasbiy-kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, jismoniy madaniyat, ESP, lingvistik muammolar, terminologiya, o'quv metodikasi, til o'rgatish texnologiyasi, interaktiv yondashuv, soha leksikasi

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ
РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.**

Шахобидинова Дилнавоз Баходир кызы

Наманганского государственного университета

Электронная почта: shahobiddinovadilnavoz325@gmail.com

Тел:998934911909

Аннотация: В статье рассматриваются способы выявления и преодоления языковых проблем, возникающих при формировании профессиональной и

коммуникативной компетентности на английском языке у студентов факультета физического воспитания.

Ключевые слова: профессионально-коммуникативная компетентность, английский язык, физическая культура, ESP, лингвистические проблемы, терминология, методика преподавания, технология обучения языкам, интерактивный подход, отраслевая лексика

**LINGUISTIC AND LINGUDIDACTIC PROBLEMS OF DEVELOPING
PROFESSIONAL-COMMUNICATIVE COMPETENCE OF SPORTS
STUDENTS IN ENGLISH**

Shahobidinova Dilnavoz Bahodir qizi
Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti
Email:shahobiddinovadilnavoz325@gmail.com
[Tel:998934911909](tel:998934911909)

Abstract: This article discusses the ways to identify and overcome linguistic problems encountered in the development of professional and communicative competence in English among students of the physical education department.

Keywords: professional and communicative competence, English, physical education, ESP, linguistic problems, terminology, teaching methodology, language teaching technology, interactive approach, field lexicon

Kirish: Bugungi globallashuv davrida har bir soha vakilining chet tilida, xususan ingliz tilida, samarali muloqot qila olishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu, ayniqsa, jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ham muhimdir. Zero, ular xalqaro musobaqalar, seminarlarda, chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashlari, ilmiy ma'lumotlarni o'zlashtirishlari lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarorida ham mutaxassislik fanlariga mos ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, jismoniy madaniyat yo'nalishida ingliz tilini kasbiy-

kommunikativ maqsadlarda o'qitishning o'ziga xos lingvistik muammolari mavjud. Masalan, sportga oid terminologiyaning yetarlicha o'zlashtirilmaganligi, muloqotda faollikning pastligi va soha tilini o'qitishda umumiy metodikalarning qo'llanilishi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ingliz tilining maxsus yo'nalishlarda o'qitilishi ESP (English for Specific Purposes) doirasida olib borilishi lozim. ESP tilshunosligi sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun samarali va aniq muloqot vositasini yaratishni maqsad qiladi. Jismoniy madaniyat sohasida esa bu jarayon o'ziga xos murakkabliklarga ega: sport atamalarining ko'pligi, madaniy kontekst farqlari, amaliy mashg'ulotlar bilan bog'liqligi o'quv jarayonida tilni qo'llashni qiyinlashtiradi. Shunday qilib, ushbu maqolada jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi lingvistik to'siqlar, ularni yengish yo'llari hamda tegishli metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

So'nggi yillarda ESP yo'nalishidagi tadqiqotlar ingliz tilini kasbiy yo'nalishlarda samarali o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Hutchinson va Waters o'z ishlarida ESPni kontekstual va ehtiyojga asoslangan ta'lim deb ta'riflaganlar¹. Ularning ta'kidlashicha, talaba uchun zarur til materialini tanlashda aynan kasbiy ehtiyojlar asosiy omil hisoblanadi. Dudley-Evans va St. John esa ESPni lingvistik, pragmatik va diskursiv yondashuvlar orqali yondashishni taklif qiladilar². Bu esa aynan sport sohasida ishlaydigan mutaxassislar uchun dolzarbdir. Ularning fikricha, soha mutaxassislariga xos til birligi umumiy akademik til bilan emas, balki professional kontekst bilan belgilanadi. O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu sohadagi muammolarga e'tibor qaratgan. Jumladan, Qodirova N. tomonidan jismoniy madaniyat talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda

¹ Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press, 1987. – B. 15-28.

² Dudley-Evans T., St. John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press, 1998. – B. 33-45.

interaktiv metodlardan foydalanish samarali yo'l sifatida ta'kidlangan³. Shuningdek, Karimova D ingliz tilidagi sport terminlarining o'zlashtirilishida multimodal yondashuvni tavsiya etadi⁴. Jalolov shuningdek, kasbiy yo'naltirilgan leksikani tanlashda uning qo'llanish chastotasi, funksional ahamiyati va mutaxassislik bilan bog'liqligi hisobga olinishi kerakligini ko'rsatadi⁵. Bu jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalariga sport terminologiyasini samarali o'rgatishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. ESP nazariyasining asoschilari Hutchinson va Waters til o'qitish mazmuni o'quvchilarning kasbiy ehtiyojlariga mos bo'lishi kerakligini asoslab bergan. Ularning fikricha, ESP yondashuvi o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va tilni amaliy faoliyat bilan bog'laydi⁶. Metodologik jihatdan ko'pchilik tadqiqotchilar ESP o'qitishda kommunikativ yondashuv, task-based learning va case-study usullarini qo'llashni taklif etadi. Shuningdek, onlayn resurslar va interaktiv platformalarning o'rni ham ortib bormoqda. Richards va Rodgers kommunikativ yondashuv talabalarning nutqiy faolligini oshirish va real muloqotga tayyorlashda samarali ekanligini ta'kidlaydi⁷. D. Nunan vazifaga asoslangan o'qitish metodini ishlab chiqib, til o'rganish real vazifalarni bajarish orqali samaraliroq bo'lishini ko'rsatadi⁸. Bim esa autentik materiallardan foydalanish talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini asoslab bergan⁹. Mazkur tadqiqot kommunikativ yondashuv, ESP yondashuvi, autentik materiallar bilan ishlash va interaktiv metodlarga asoslangan lingvodidaktik metodologiyaga tayanadi.

Natijalar va muhokama

³ Qodirova N. Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv yondashuv. Toshkent, 2020. – B. 20-34.

⁴Karimova D. Sport terminologiyasini o'rgatishda multimodal metodlarning o'rni. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 55-63.

⁵ Jalolov Jamol J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 148-bet.


⁶ Jalolov Jamol J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 150-bet.

⁷ Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge, 2014. – 160-bet.

⁸ Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge, 2004. – 40-bet

⁹ Bim I. L. Metodika obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva, 2007. – 115-bet.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun maxsus metodik va lingvistik yondashuv zarur. Eng avvalo, ESP asosida tuzilgan o'quv materiallari, sportga oid atamalarni qamrab olgan leksik treninglar, real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashqlar ishlab chiqilishi lozim. Sport sohasida ingliz tilini o'qitishda asosiy muammo — atamashunoslik, ya'ni professional leksikani to'g'ri o'zlashtirishdir. Bu muammoni bartaraf etish uchun task-based learning va multimedia vositalaridan foydalanish eng maqsadga muvofiq yo'l hisoblanadi.



Lingvistik muammolar: Sport sohasiga oid ingliz tilini o'qitishda eng muhim lingvistik muammolardan biri bu kasbiy terminologiyaning murakkabligi va ko'p qatlamliligidir. Sport terminlari ko'pincha umumiy ingliz tilidagi

soʻzlardan farqli ravishda tor kasbiy maʼnoga ega boʻladi. Masalan, training load, endurance capacity, muscle recovery, injury prevention, performance analysis kabi terminlar nafaqat tarjimani, balki ularning ilmiy-amaliy mazmunini tushunishni ham talab qiladi. Talabalar ushbu terminlarni kontekstdan tashqarida oʻrganishda qiyinchilikka duch keladilar. Ikkinchi muammo sport matnlarining stilistik xususiyatlari bilan bogʻliq. Sportga oid ilmiy matnlarda passiv konstruktsiyalar, qisqartmalar (BMI, VO2 max, HIIT), grafik va jadval asosidagi maʼlumotlar keng qoʻllaniladi. Bu esa talabalardan nafaqat til bilimini, balki ilmiy matnni tahlil qilish koʻnikmasini ham talab qiladi. Yana bir muhim lingvistik muammo — autentik materiallarning murakkabligi. Xalqaro sport ilmiy maqolalari, trenerlik qoʻllanmalari va sport tibbiyoti materiallari til jihatdan murakkab boʻlib, talabalar darajasiga moslashtirilmagan boʻladi. Natijada talabalar matnning umumiy mazmunini tushunishda qiyinchilikka duch keladi. Shuningdek, terminlarning tarjima muammosi ham dolzarb hisoblanadi. Ayrim sport terminlari oʻzbek tilida toʻliq ekvivalentga ega emas yoki bir nechta variantda tarjima qilinadi, bu esa terminologik chalkashliklarni yuzaga keltiradi.

Lingvodidaktik jihatdan asosiy muammo — sport yoʻnalishiga mos ESP oʻquv materiallarining yetishmasligi. Koʻpgina ingliz tili darsliklari umumiy ingliz tiliga moʻljallangan boʻlib, sport yoʻnalishidagi kasbiy vaziyatlarni yetarli darajada aks ettirmaydi. Natijada talabalar oʻz kasbiy faoliyatiga mos nutqiy vaziyatlarda muloqot qilish koʻnikmasini toʻliq rivojlantira olmaydi. Ikkinchi muammo — oʻqitish metodlarini toʻgʻri tanlash masalasidir. Anʼanaviy grammatika-tarjima usuli sport sohasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun yetarli emas. ESP oʻqitishda kommunikativ yondashuv, vaziyatli mashqlar, rol oʻynash, autentik matnlar bilan ishlash, skimming va scanning kabi strategiyalarni qoʻllash zarur. Yana bir muhim muammo — talabalarning motivatsiyasi bilan bogʻliq. Agar oʻquv materiali talabaning kelajak kasbiy faoliyati bilan bevosita bogʻlanmasa, ularning til oʻrganishga boʻlgan qiziqishi pasayadi. Sportga oid real misollar, mashgʻulot rejalari, sportchilar intervyulari va trenerlik vaziyatlari asosidagi mashqlar esa motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, nutq faoliyati

turlarini integratsiyalash muammosi ham mavjud. Ko‘pincha o‘qish va tarjima qilishga ko‘proq e‘tibor qaratilib, gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalari yetarli rivojlantirilmaydi. Holbuki, sport mutaxassisi xalqaro musobaqalarda, trening jarayonida va ilmiy konferensiyalarda ingliz tilida muloqot qila olishi zarur.

Xulosa va tavsiyalar

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun quyidagi lingvodidaktik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- o Sportga oid autentik matnlar asosida o‘qitish;
- o Kasbiy terminologiyani kontekst asosida o‘rgatish; pre-reading, while-reading va post-reading strategiyalaridan foydalanish;
- o Skimming va scanning orqali matn bilan ishlash;
- o Rol o‘ynash va kasbiy vaziyatli dialoglar tashkil etish;
- o Multimedia va video materiallardan foydalanish;
- o Esp ga mos maxsus o‘quv qo‘llanmalarini yaratish.

Natijada talabalar ingliz tilida sport sohasiga oid ma’lumotlarni tushunish, tahlil qilish va kasbiy muloqotda qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, talabalarni real hayotiy vaziyatlarga jalb qilish, masalan, sport mashg‘ulotlarini ingliz tilida olib borish amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Maqola doirasida taklif etilayotgan yondashuv — ESP asosida ixtisoslashtirilgan o‘quv modullarini ishlab chiqish va ularni interaktiv metodlar bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Bu esa talabalar kasbiy til kompetensiyasini shakllantirishda samarali natijalar beradi.

Ushbu maqola jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda lingvistik muammolarni aniqladi va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgiladi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ESP metodologiyasidan foydalanish, real kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilish va interaktiv yondashuv orqali tilni o‘rganish samaradorligini oshirish mumkin.

Maqolaning yangiligi shundaki, unda aynan sport yoʻnalishiga xos lingvistik toʻsiqlar va ularni bartaraf etish texnologiyalari tizimli tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press, 1987. – B. 15-28.
2. Dudley-Evans T., St. John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press, 1998. – B. 33-45.
3. Jalolov Jamol J. Chet til oʻqitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 148-bet.
4. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge, 2014. – 160-bet.
5. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge, 2004. – 40-bet
6. Bim I. L. Metodika obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva, 2007. – 115-bet.
7. Qodirova N. Jismoniy madaniyat yoʻnalishi talabalarining ingliz tilidagi kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv yondashuv. Toshkent, 2020. – B. 20-34.
8. Karimova D. Sport terminologiyasini oʻrgatishda multimodal metodlarning oʻrni. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 55-63.
9. Richards J.C. Curriculum Development in Language Teaching. Cambridge University Press, 2001. – B. 112-125.
10. Garea D. Teaching English for Sports Purposes. European Journal of Physical Education, 2019. – B. 89-97.
11. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson, 2007. – B. 76-88.